



## **World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy**

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26<sup>th</sup> June 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

### **JANUBIY HISOR TOG‘ MINTAQASI AHOLISINING GENEALOGIK AN‘ANALARI XUSUSIDA (SAYROB QISHLOG‘I MISOLIDA)’**

Chorshanbiyev Shahboz Olimovich

Termiz davlat universiteti doktoranti. O‘zbekiston.

e-mail: [shahbozchorshanbiyev3@gmail.com](mailto:shahbozchorshanbiyev3@gmail.com)

#### **Annotatsiya**

Maqolada muallif tarixiy-etnografik manbalar, etnografik materiallar asosida Hisor tog‘ tizmalari bag‘rida joylashgan Sayrob qishiligi aholisining genealogik an‘analari, urf-odatlari, marosimlari, etnik va hududiy o‘zliklari masalalari mavjud ilmiy adabiyotlar, tadqiqot natijalari va muallifning dala materiallari asosida tahlil etgan.

**Kalit so‘zlar.** Sayrob, oila-qarindosh guruhlari, lokal-etnoguruh, oila-shajaralari, genealogiya, o‘zliklar, kasbiy o‘zlik, etnik o‘zlik, qishloq-mavzelari, Sayroblar, chig‘atoy.

### **ОБ ОСОБЕННОСТЯХ ГЕНЕАЛОГИЧЕСКИХ ТРАДИЦИЙ НАСЕЛЕНИЯ ЮЖНО-ГИССАРСКОГО ГОРНОГО РЕГИОНА (НА ПРИМЕРЕ СЕЛА САЙРОБ)**

#### **Аннотация**

В статье на основе историко-этнографических источников и полевых этнографических материалов анализируются генеалогические традиции, обычаи, обряды, а также вопросы этнической и локальной идентичности населения села Сайроб, расположенного в предгорьях Гиссарского хребта. Данное исследование базируется на анализе существующей научной



## **World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy**

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26<sup>th</sup> June 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

литературы, результатах современных изысканий и личных полевых материалах автора.

**Ключевые слова:** Сайроб, семейно-родственные группы, локально-этнографическая группа, семейные родословные, генеалогия, идентичность, профессиональная идентичность, этническая идентичность, сельские кварталы (мавзе), сайробцы, чигатай.

### **ON THE GENEALOGICAL TRADITIONS OF THE POPULATION IN THE SOUTHERN HISSAR MOUNTAIN REGION (ON THE EXAMPLE OF SAYROB VILLAGE)**

#### **Abstract**

Based on historical-ethnographic sources and field ethnographic data, this article analyzes the genealogical traditions, customs, rituals, as well as issues of ethnic and local identity of the population of Sayrob village, located in the foothills of the Hissar mountain range. The study is synthesized using existing scientific literature, research outcomes, and the author's own field materials.

**Keywords:** Sayrob, family-kinship groups, local-ethnogroup, family genealogies, genealogy, identities, professional identity, ethnic identity, village quarters, Sayrobs, chagatay.

O‘zbekistonning turli hududlarida saqlanib qolgan shajaraga oid rivoyatlarni, tarixiy manbalarni, folklor materiallarni, og‘zaki tarixni o‘rganish mahalla, avlod, urug‘lar haqidagi tarixiy xotirani tiklashda katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, shajara an‘analarida yetti ota, yetti pusht, yetti avlod, ya’ni o‘z ajdodini bilish



## World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26<sup>th</sup> June 2026

Website: <https://econferencia.com>

an'anasi Sa hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. Bunday an'ana ayniqsa, tog'li mintaqalarda yaxshi saqlanib qolganligini guvohi bo'lish mumkin.

Sayrob qishlog'i Hisor tog' tizmasining eng janubiy tarmog'i – Boysun tog'ining hamda Ko'hitang tog' tizmasining shimoliy qismi – Suvsiz tog'ining sharqiy etaklarida joylashgan. Sayrobda 1926-yil qishloq kengashi tuzilgan. 1958-yil qorako'lichilikka ixtisoslashgan "Sayrob" davlat xo'jaligi tuzilgan. Hozirgi vaqtda to'rt yarim mingga yaqin aholi yashamoqda. Sayrob qishlog'idan shimoli-g'arbda joylashgan Uzundarada akademik E.Radveladze 1991-yilda qazish ishlarini boshlagan. Arxeolog K.Sheyko 2014-yilda davom ettirgan. Uzundara miloddan avvalgi 3-asrning boshlarida So'g'd va Baqtriya chegarasida barpo etilgan mudofaa qal'asi bo'lgan. Qal'a devorlarining uzunligi 900 m, devorning eni 3.5 m bo'lib, toshdan loy bilan barpo etilgan. Qal'a devorlarida to'g'ri burchakli yoki kvadrat shakldagi har xil hajmdagi jami 10 ta minora mavjud. Ularning oralig'i 25 m.dan 170 m.gacha masofada joylashgan. Qal'aning kirish joyida 11 ta minora bo'lib, u janubi-sharqiy tomondan keladigan barcha yo'lakni kuzatish imkonini beradi. Sayrobdagi ming yillik chinorlar ham qadimda aholi yashagan manzil ekanligining isbotidir<sup>1</sup>.

"Sayrob" so'zining ma'nosi fors-tojik tilidan olingan bo'lib, "sari ob" – ya'ni suvning boshi degan ma'noni anglatadi<sup>2</sup>. B.X.Karmishevaning ta'kidlashicha, Sayrob aholisi orasida to'qqiz qishloqdan ikkitasida (aniqrog'i, ikkita kichkina qishloqda) eshonlar va xo'jalar yashagan. Qolgan aholi to'rt urug'ga bo'lingan: Keldik, Mardoni, Arbobi va Yetti urug'<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Dala tadqiqoti. Sayrob qishlog'i. 2024-yil. Bozorov Turdimurod. 95 yosh.

<sup>2</sup> Турсунов С. Н. Сурхандарё вилояти топонимлари Т. 2008

<sup>3</sup> Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. –М.: 1976. – С. 10,13, 17-18.



## **World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy**

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26<sup>th</sup> June 2026

Website: <https://econferencia.com>

N A Kislyakovning ta'kidlashicha sayrob qishlog'i to'qqizta emas, o'n uchta mahalla yoki kichik qishloqlarga bo'lingan. (kabutiy,ganda, qabjug'ay, chinor, payqum, kali-qo'rg'on, qizil-jar,quduq, kali-mushkil, obgir, minchoq, bodomchilik). Sayrob qishlog'ida dastlabki 5 ta kichik mahalla yoki qishloqlarda nimdaha guruhi, ular 2 ta "Avlodi keldik" va "Avlodi mardoniy "guruhiga bo'lingan, qolgan mahalla yoki qishloqlarda "Avlodi yetturuq" va "Avlodi arbob" kichik guruhlarga bo'lingan "Turkoniylar" guruhi yashaydi. N A Kislyakov sanab o'tilgan nomlarning aralash turkiy-eron kelib chiqishiga etibor qaratgan holda,"turklarning sezilarli ta'siri, ehtimol turkiy elimentlarning mavjudligi haqida" degan xulosaga keladi. Sayrobda birinchi marta oq saqol "sardor" katta arbob 60-70 xo'jalikni boshqargan. Ikkinchisi kadu arbob 50-55 (oila) xo'jalikni boshqargan. Qolgan kichi qishloqlarda Avlodi Et turuq va Avlodi Arbob kichik guruhlarga bo'lingan turkoniylar tojik guruhlari yashagan. Oqsaqol Bekendi Arbob 40-ta (oila) xo'jalikni boshqargan. Chorshanbe Amin 60-ta (oila) xo'jalikni boshqargan. Janubiy O'zbekiston tojiklarining mutlaqo yetarli darajada o'rganilmaganligi sababli, biz imkon qadar Sayrob tojiklarining etnik kelib chiqishi haqida ham ma'lumotlar to'plashga harakat qildik va ushbu ma'lumotlarni keltirib o'tamiz. Mahalliy rivoyatlarga ko'ra, qachonlardir hozirgi Sayrob o'rniga peshonasida oq tamg'asi, ya'ni qashqasi bo'lgan eshaklarga mingan mingta chavandoz kelib, buloq bo'yida to'xtagan. Biroq bu joy taqiqlangan hudud bo'lib chiqqan ko'rinadi, chunki oy va yulduzlar kelganlarga qarata o'q ota boshlagan va ikki-uch kishidan tashqari ularning barchasi halok bo'lgan. Omon qolganlar buloq bo'yida qo'nim topishgan va ularning avlodlarini Naym avlodlari deb atay boshlashgan.<sup>4</sup>

B. X. Karmisheva 1957-yilda qayd etishicha, Sayrob aholisi orasida eshonlar va xo'jalar bor bo'lib, ular to'qqizta qishloqning, aniqrog'i mahallaning ikkitasida

<sup>4</sup> Кисляков Н.А. Сайробские таджики. / СЭ. 1965.– №2.– С. 26.



## **World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy**

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26<sup>th</sup> June 2026

Website: <https://econferencia.com>

yashaydilar. Qolgan aholi esa to'rtta urug'ga bo'linadi, bular Keldik, Mardoni, Arbobi va Etti urug'dir.<sup>5</sup>

Bizning ma'lumotlarimizga ko'ra, Sayrob to'qqizta emas, balki o'n uchta mahalla yoki kichik qishloqlarga bo'linadi, bular Ilolik, Kabuti, Ganda, Kabchukay, Chinor, Paykum, Qal'ai Qo'rg'on, Qiziljar, Quduq, Qal'ai Mushkil, Obgir, Minjok va Bodomchilikdir. Ko'rinib turganidek, bu yerda ham tojikcha, ham turkcha nomlar uchraydi. Sayning yuqori qismida joylashgan dastlabki beshta mahallada Nimdaxa tojiklari guruhi yashaydi va ular avlodi Keldik hamda avlodi Mardoni kichik guruhlariga bo'linadi. Birinchisining qachonlardir oqsoqoli, ya'ni sardori 60-70 ta xo'jalikni boshqargan muayyan Katta Arbob bo'lgan, ikkinchisining boshlig'i esa, 50-55 ta xo'jalikni boshqargan Kadu Arbob bo'lgan. Qolgan mahallalarda esa, Turkoni tojiklari guruhi yashaydi va ular avlodi Etturuk hamda avlodi Arbob kichik guruhlariga bo'linadi. Birinchilarining oqsoqoli 40 ta xo'jalikni boshqargan Bekkendi Arbob bo'lgan, ikkinchilarida esa 60 ta xo'jalikni boshqargan Chorshanbe Amin bo'lgan. Bizning ma'lumotlarimizni Karmishevaning yuqorida keltirilgan qaydlari bilan solishtirganda, eshonlar va xo'jalar aynan muqaddas buloq yaqinida joylashgan Naym avlodlari ekanligini taxmin qilish mumkin. Markaziy Osiyoda boshqa ziyoratgohlar kabi bunday muqaddas joylardan foydalanishni, qoida tariqasida, imtiyozli musulmon tabaqalari vakillari o'z nazoratlariga olishgan. Keltirilgan guruh va kichik guruhlarining nomlari ham aralash, ya'ni turkiy-eroniy xarakterga ega. bularning barchasi Sayrob tojiklari muhitida kuchli turkiy ta'sir mavjudligidan, ehtimol hatto turkiy elementlarning borligidan dalolat beradi.<sup>6</sup>

<sup>5</sup> Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. –М.: 1976. – С. 10,13, 17-18.

<sup>6</sup> Кисляков Н.А. Сайробские таджики. / СЭ. 1965.– №2.– С. 26.



## **World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy**

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26<sup>th</sup> June 2026

Website: <https://econferencia.com>

Sayrobning keksa yoshli aholisi (77 yoshli Homidxon Sariqboyev, 107 yoshli Mo‘min Sobirov va boshqalar) bizga Sayrob tojiklari chig‘atoylar ekanligini ko‘rsatib o‘tishdi. Ularning so‘zlariga ko‘ra, tojik tilida gaplashadiganlarni chig‘atoylar deb atashadi, o‘zbek tilida gaplashadiganlarni esa qo‘sh-tamg‘ali, ya‘ni bizga tushuntirishlaricha, o‘zbek-qo‘ng‘irotlarning urug‘ tarmoqlaridan birining nomi bilan atashadi.

Chig‘atoylar bekni mir deb atashgan, o‘zbeklar esa, bek deyishgan, bu esa, chig‘atoylarning tojik ekanligini tasdiqlaydi, chunki sobiq Sharqiy Buxoroda barcha tojiklar Buxoro amirligi hokimlari, ya‘ni beklar uchun mir atamasini qo‘llashgan. <sup>7</sup>Ma‘lumot beruvchilar Sayrob va boshqa ba‘zi yaqin qishloqlar tojiklarini chig‘atoylar deb atashlariga sabab, ularning tojikoni ko‘hpora, ya‘ni tog‘larda tarqalib ketgan tojiklar ekanligini ta‘kidlashdi: Ular tog‘lar bo‘ylab tarqalib, buloqlar bo‘yiga o‘rnashishgan, ularda bozorlar bo‘mgan. Shuningdek, chig‘atoylar Arabistondan kelgan ajamlar, ya‘ni forslarning avlodlari degan taxmini ham ilgari suradilar. Sayrobdan tashqari, yaqin atrofdagi qishloqlar, ya‘ni Panjob, Darbant va Machay tojiklari ham chig‘atoylar hisoblanadi. Mahalliy o‘qituvchilar sayrobliklarning chig‘atoylarga mansubligini inkor etib, chig‘atoylar Boysun aholisining bir qismini tashkil etishini ko‘rsatib o‘tishdi. Biz keltirgan ushbu material nihoyatda qisqa bo‘lib, u faqat bitta qishloqqa tegishli va tabiiyki,

B. X. Karmisheva adolatli qayd etganidek, juda murakkab bo‘lgan chig‘atoylar muammosini hal qilishga imkon bermaydi<sup>8</sup>.

Chig‘atoylar muammosida, eng avvalo, biz bu yerda haqiqatan ham real etnografik guruh bilan ish olib boryapmizmi yoki gap qandaydir o‘xshashliklar

<sup>7</sup> Кисляков, Н.А. Семья брак у Таджикив. Труды Ин--та этнографии. АН СССР, нов. серия, т. IV, М.--Л., 1959. стр. 77--135.

<sup>8</sup> Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории южных раёнов Таджикистана и Узбекистана. --М.: 1976. -- С. 10,13, 17-18.



## World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26<sup>th</sup> June 2026

Website: <https://econferencia.com>

yoki qarama-qarshiliklar tufayli qo‘shnilar tomonidan tub aholining u yoki bu qismiga berilgan va ehtimol ularning o‘zlari ham qabul qilgan nom haqida boryaptimi, degan savolga javob berish kerak bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki, chig‘atoylar muammosini hal qilish uchun yanada uzoq va chuqurroq tadqiqotlar o‘tkazish, har bir qishloqda ma‘lumotlarni sinchiklab to‘plash va barcha olingan materiallarni izchil ravishda qayta ishlash talab etiladi<sup>9</sup>.

Sayrob qishlog‘idagi aholisining ta‘kidlashicha, Sayrob qishlog‘i ikkita katta dahaga bo‘linadi. (Arraboloda, ya‘ni “Arraning yuqorisida” yashaydigan aholini Nimdaha deyishadilar. Nimdaha uchta katta urug‘ga bo‘linadi; 1. Avlodi Keldik (avlodi Nadirxon, Burxon, Valigi, Boqigi va Kattagi ). 2. Avlodi Mardon; (Ernazar, Ataliq, G‘ldir, Barot). 3. Mayda Urug‘; (Avlodi Naimi, Kamoli va Ermahmati). 4. Saidlar avlodi. Arrapoyinda ya‘ni “Arraning pastgi qismida” yashovchi aholini Turkoniy deb nomlaydilar. Turkoniylar ikkita katta urug‘ga bo‘linadi. 1- Yetti urug‘ (Avlodi Hasan, Shodin, Ortiq, Nafas, Amak va Qozi xo‘janazar) 2-Avlodi Arbob; (Hayiti, Do‘stboyi, Bekmahmadi va Rajabi)<sup>10</sup>.

Sayrob qishlog‘ida o‘tkazilgan dala tadqiqoti materiallarimda aniqlanishicha, Sayrob qishlog‘i o‘n uchta emas, balki o‘n to‘rtta tojik va turkiy nomlari bilan atalgan qishloq mavzelarga bo‘linadi. (Quduq, Dashtihisor, Qapchig‘ay, Kabuti, Ganda, No‘giara, Payko‘m, Qo‘ruq, Qizil jar, Munchoq, Mushkil, Zaliq, Obgir va Bodomchilik) mavjuddir<sup>11</sup>.

Sayrob qishlog‘ining bulog‘i boshlanishida birta bo‘lib, Sayrob soyi orqali Sherobod daryosiga quyilguncha yana yuzga yaqin mayda-mayda buloqlar mavjud. Masalan, Chashmayi Chinor, Chashmayi Shokir, Chashmayi Arra, Chashmayi Muhiddinbobo, Chashmayi Safedi, Chashmayi Obiza, Chashmayi

<sup>9</sup> Кисляков Н.А. Сайробские таджики. / СЭ. 1965.– №2.– С. 26.

<sup>10</sup> Dala tadqiqoti. Sayrob qishlog‘i. 2024-yil. Bozorov To‘ramurod. 95 yosh. Begmatov Jumaqul. 57 yosh. G‘o‘dalov Nodirxon. 70 yosh. Abduraxmonov Abdusalom 70 yosah.

<sup>11</sup> Dala tadqiqoti Sayrob qishlog‘i. 2025 yil. йил. G‘o‘dalov Nodirxon. 70 yosh.



## **World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy**

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26<sup>th</sup> June 2026

Website: <https://econferencia.com>

Poyin, Chashmayi Do'k yuqorida ta'kidlangan buloqlar, shifobaxsh xususiyatlarga ega. <sup>12</sup>

Hasan avlodi. Mirzo Hasan o'z oilasi bilan Sayrob qishlog'ining payko'p tepaligida yashagan uning uchta o'g'li bo'lgan. Isomiddin, Quadrat va Berdinazar uning o'g'li Chorshanbi amin; uning to'rta o'g'li va to'rta qizi bo'lgan. Isomiddinning uchta o'g'li bo'lgan: Abduqodir, Abduroziq va Abduxoliq. Abduqodirning farzandlari usta Temir va Temirovlar hisoblanadi. Abduroziqning farzandlari Mahmadrhim, Qo'shsha, Hakim, Jo'rahakim To'ra hakim bo'lgan. Abduxoliqning ikkita o'g'li bo'lgan. Abdunabi va Mahmadrabi bo'lib, Sayrob qishlog'ida yshayotgan aholining aytishlari bo'yicha, bugungi kunda ularning avlodlari Tojikistonda yashamoqda. Hasanning ikkinchi o'g'li Quadratdan Qurbonazar va Sadullo. Quadratboyning farzandlari orasidan Sa'dullo mulla bo'lgan. bu avlodning Eshnazar, Abdullo, Nasrullo isimli o'g'illari bo'lgan. Qurbonazardan Toshnazar uning o'g'li Beknazar uning o'g'li Karimnazar. Karimnazardan Norqul bo'lgan. Hasanning ikkinchi o'g'li Quadrat undan Qurbonazar va Sadullo. Qurbonazardan Toshnazar uning o'g'li Beknazar uning o'g'li Karimnazar. Karimnazardan Norqul bo'lgan.

Berdinazarning farzandlari orasida Chorshanbi amin otasidan erta ajraladi va Isomiddin va Quadrat bobolarining tarbiyasini oladi. Chorshanbi amin 16-17 yoshlarida uzun bo'yli mehnat sevar, polvonsifat va jismonan baquvat bo'lgan. aytishlaricha, avlodi Arboblardan Mirzo Husen bir gektar yerga arpa ekkan arpasini Chorshanbi amin juda qisqa vaqt ichida arpani o'rib, band qilib bog'lab xirmonga to'plab qo'yadi. natijada Chorshanbi amin o'zining ishchanligi mehnat sevarligi bilan Mirzo Husenning ishonchini qozonib, shu oilaning barcha ishlariga o'zi bosh- qosh bo'ladi. Bu holat Mirzo Husenning farzandlariga yoqmaydi. Buni sezgan Mirzo Husen Chorshanbi aminni sherobod bekligidagi

<sup>12</sup> Dala tadqiqoti. Sayrob qishlog'i. 2025 yil. Begmatov Jumaqul. 57 yosh.



## World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26<sup>th</sup> June 2026

Website: <https://econferencia.com>

tanishiga topshiradi. Chorshanbi amin 18-19 yoshlarida Sherobodga borib, Elbegi urug‘ining boshliqlaridan biri Abduqodirboyning ishonchli kishilaridan biriga aylanadi. U o‘zining mehnatsevarligi, halolligi odobi bilan Elbegilar orasida hurmatga sazovor bo‘ladi. Bir necha vaqtdan keyin sherobodlik boy unga yaqin qarindoshlaridan Tursunoyni nikohlab beradi. Chorshanbi Aminning bir necha vaqt mobaynida farzandi bo‘lmagan. shundan keyin boy unga "o‘g‘lim sen o‘z yurtiga bor zero, farzandlaring ko‘paysa" deb uni Sayrobgga jo‘natadi. Chorshanbi Amin katta sarmoya bilan kelib, hozirgi Chilonzorning pastki tomonidagi Shodiboy to‘qayida, karvonsaroy, tegirmon, juvoz qurib shu yerda yashay boshlagan. Chorshanbi Amin shu yerdan o‘tgan musofirlarga, amir choparlariga dam olishi uchun yotoq joy berib ularning xizmatida bo‘lgan. Chorshanbi Aminning bu ishlari amir saroyiga yetib boradi, natijada mang‘itlar amiri Shoh Murod Chorshanbi Aminni saroyga chaqiradi, shundan keyin Boysun bekligining Poshxurd amlokdorligiga Amin deb tayinlagan<sup>13</sup>.

Chorshanbi aminning uchta xotinidan sakkizta farzandi bo‘lgan. To‘rta o‘g‘il va to‘rta qizi bo‘lgan. Tursuoydan: ikki o‘g‘il va bir nafar qizi bo‘lgan. Tursunboy To‘raqul va Qurbonoy bo‘lgan. Tursunboyning o‘g‘li Abdurahmonboy uning o‘g‘li Ro‘ziboy undan Abdusalom, Masturadan Berdinazar, uning o‘g‘li Hoji Hasan Hoji Jum qizlari Xonbibi bo‘lgan. Chorshanbi Amin 70 yoshida Ro‘zioy isimli ayolga uylangan. Undan ikki o‘g‘il ko‘rgan. Shamsiddin va G‘iyosboy. Isomiddin bobodan qolgan farzandlar Mulla Xoldor va Mulla Avaz. Ular diniy va dunyoviy ilmni mukammal egallagan. Bedil So‘fi Olloyor Navoiy, Firdavsiy, Sa'diy kabi shoirlar ijodidan yaxshi xabardor bo‘lib, ularning sherlarini yoddan aytib bera olgan<sup>14</sup>.

<sup>13</sup> Dala materiallari. Sayrob qishlog‘i. 2026 yil.

<sup>14</sup> Dala materiallari. Sayrob qishlog‘i. 2026 yil. Abduraxmonov Abdusalom. 71 yosh.



## **World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy**

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26<sup>th</sup> June 2026

Website: <https://econferencia.com>

**Xulosa.** Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, qadimiy Sayrob qishlog‘ining etnik tarixi, tarkibi va toponimikasini shajara an‘analari hamda og‘zaki tarix orqali o‘rganish tarixiy xotirasini tiklashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Uzundara mudofaa qal‘asi kabi arxeologik yodgorliklar hududning qadimiyligidan dalolat bersa, dala tadqiqotlari natijasida aniqlangan 14 ta qishloq mavzesining mavjudligi hamda aholining Nimdaha va Turkoniy kabi guruhlariga bo‘linishi bu yerda asrlar davomida turkiy va eroniy elementlarning o‘zaro kuchli integratsiyalashganini ko‘rsatadi. Mahalliy aholining o‘zini "chig‘atoylar" deb atashi mintaqaning o‘ziga xos murakkab etnografik xarakterini ochib beradi. Shu bilan birga, hududiy boshqaruvda iz qoldirgan Chorshanbi Amin kabi tarixiy shaxslar va ular mansub bo‘lgan Hasan avlodi shajarasi misolida xalqning ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlarini va og‘zaki o‘tmishi avloddan-avlodga uzviy o‘tib kelayotganligi isbotlanadi. Umuman olganda, ushbu etnotarixiy materiallar mustaqil taraqqiyot yo‘lidagi xalqimizning milliy o‘zligini anglashi hamda yosh avlodda yangi fuqarolik ongini shakllantirishida qimmatli ilmiy-amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi.

### **Фойдаланилган адбиётлар рўйхати**

- 1.Турсунов С. Н. Сурхандарё вилояти топонимлари. Т., 2008.
2. Кисляков, Н.А. Семья и брак у таджиков. Труды Ин-та этнографии. АН СССР, нов. серия, т. IV, М.--Л., 1959.
3. Кисляков. Н.А. Некоторые материалы к вопросу об этногенезе Таджиков, "Краткие сообщения Ин-та этнографии АН СССР", XXX, 1958.
4. Кисляков Н.А. Сайробские таджики. / СЭ. 1965.— №2.
5. Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: 1976.